

**MAHALLIY BUG'DOY DONINING KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINI
TADQIQ ETISH.**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SHahrisabz filiali asisstanti

Uzoqov Yusuf Axrol o'g'li

E-mail: Yusufuzoqov@inbox.ru

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SHahrisabz filiali talabasi

Hamroyev Azizbek Akrom o'g'li

E-mail: azizbekhamroyev77@gmail.com

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SHahrisabz filiali talabasi

Hafizov Shoxruh G'ofurjon o'g'li

E-mail: hafizovshohruh48@mail.com

ANNOTATION

For average physical activity, a person is recommended to consume 1200 - 1300 kJ of food products the day. 100 g of bread has a capacity of 1100 - 1300 kJ. The amount of food required for proper nutrition depends on people's age, sex, work activity and climatic conditions. In terms of nutritional value, bread products are at the top. Protein plays an important role in the nutritional value of food. In one night, a person eats 80-120 g of protein with food. When flour products are consumed, 30-40% of the human body's need for protein and 50-60% of its need for carbohydrates are met. In addition to these, these products contain amino acids, fats, vitamins and minerals that cannot be replaced from important biological substances. This article focuses on the varieties, chemical composition and consumption of local wheat grains.

Key words: Protein, carbohydrates, minerals, starch, fiber.

ANNOTATSIYA

O'rtacha jismoniy faoliyat uchun inson bir kecha-kunduzda 1200 - 1300 kJ kaloriyaga teng oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishi tavsiya etiladi. 100 g non 1100 - 1300 kJ gacha quvvatga ega. To'g'ri ovqatlanish uchun zarur oziq-ovqat miqdori insonlarning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati va iqlim sharoitiga bog'liq. Oziqaviy quvvati jihatidan non mahsulotlari yuqori o'rinda turadi. Oziqalarning iste'mol qiymatida oqsil muhim ro'l o'ynaydi. Bir kecha-kunduzda inson oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga 80-120 g oqsil iste'mol qiladi. Un mahsulotlari iste'mol qilinganda inson organizmining oqsilga bo'lgan talabining 30-40 foizi, uglevodlarga bo'lgan ehtiyojining esa 50-60 foizi qondiriladi. Bu mahsulotlarda bulardan tashqari muhim biologik moddalardan almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar, yog'lar, vitaminlar va mineral moddalar mavjud. Ushbu maqola mahalliy bug'doy donining navlari, kimyoviy tarkibi hamda iste'molda tutgan o'rniga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Oqsil, uglevod, mineral moddalar, kraxmal, kletchatka.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 6-fevraldagi PF-334-sonli farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari («O'zdonmahsulot») davlat konserni tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 22 apreldagi PF-840-sonli farmoniga asosan «O'zdonmahsulot» davlat konserni «O'zdonmahsulot» davlat - aksionerlik korporatsiyasiga aylantirilgan. Ushbu korporatsiyasiga qarashli 44 ta un ishlab chiqaruvchi korxonalar mahalliy bug'doy donini qayta ishlab un ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalaridir.

Inson oqsilga bo'lgan ehtiyojining 40% ni non mahsulotlari hisobiga qondiradi. Don mahsulotlari oqsili almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar mutanosibligi bilan farq qiladi. Don mahsulotlari tarkibida lizin aminokislotalari kam bo'ladi. Don mahsulotlarida yog' kam miqdorda bo'ladi. Ayrim don mahsulotlarida yog' 2 %ni tashkil qiladi xolos. Yog' asosan donning pushtida va qobig'ida bo'ladi. Endospermada yog' yo'q hisobi. Don mahsulotlarida yog' oz bo'lsada, ma'lum darajada biologik qiymatga ega. Bu yog'larga linol, fosfolipidlar, letsitin kiradi. Don pushtidagi yog'da eruvchi E vitamini (tokoferol) ko'p miqdorda bo'ladi. Yarim to'yingan yog' kislotalari tez oksidlanib, donning tez buzilishiga olib keladi. Don mahsulotlarida uglevodlar nisbatan ko'p bo'ladi. Uglevodlar boshqoqli donda 65% dukkakli donlarda 50 % gacha bo'ladi. Uglevodlar don tarkibida asosan kraxmal holida bo'ladi. Mineral moddalarning moddalarning asosiy qismi don pushtida bo'ladi. Umumiy miqdori 1,5-4% gacha. Don mahsulotlari tarkibida kaliy, fosfor, magniy va oz miqdorda kalg'tsiy bo'ladi. Organizmga don mahsulotlari orqali sutkada 1600 mg fosfor, 2000 mg kaliy, 250 mg kalsiy, 90 mg magniy tushadi, bu sutkalik extiyojni qondirish uchun yetarlidir. Yoki don tarkibidagi fitin birikmalari hisobiga kaltsiy va fosforning o'zlashishi yaxshi kechmaydi. Don mahsulotlarida B guruhiga mansub hamma vitaminlar bo'ladi. 100 gr don mahsulotida 0,4-0,7 mg tiamin, 0,2 mg riboflavin va 2-5 mg niatsin aniqlanadi. Bundan tashqari, donda piridoksin (0,5mg), lantotenat va paraaminobenzoy kislota, inozit va biotin, tokoferollar mavjud bo'ladi. Vitaminlar donning pushti va qobig'ida bo'ladi.

Mahalliy bug'doy navlari va uning sifatleri

Navlar	Ekish muddati	Hosildorlik, s/ga	1000ta donning vazni, gr	Oqsil, %	Kleykoven, %	Umumiy non yopish bahosi ball
Marvarid	Bahorgi	21,7-15	38,7	16,2	31,5	4
Marjon	Bahorgi	43,9-59,6	41-52,3	12-16	28-30	4,8-5
Sanzar-4	Kuzgi	42-56,5	38-40	11,6-	28-29	4-5

				14,8		
Sanzar-6	Kuzgi	17,7-23,4	37-45	8,5	27,5	3
Sanzar-8	Kuzgi	45,4-55,5	42,5	11,2-13,7	27	-
Sherdor	Kuzgi	63	41,5	13,2-15,8	-	-
Enbosh	Kuzgi	43-57	38,8-45,5	11,9-14,7	24-30	4,7
Tezpishar	Kuzgi	7,8-21,8	-	9,1	27,5	3,5
Unumli bug'doy	Bahorgi	47,3-49,8	40,6-43,4	11,3	26	5
Karlik-85	Kuzgi	45,4	38,4-45,8	-	-	4
Ko'k bo'lak	Kuzgi	15,1	38,9-45	9,8	25,5	3,8
Zumrad	Kuzgi	16,6	38,5-44,9	9,3	27	3
Makuz-3	Bahorgi	25,1	38,4-39,1	-	-	4

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, tuproqni tarkibiga bog'liq holda yumshoq bug'doy donidagi oqsil miqlori tabiiy ravishda ko'payishi yoki kamayishi kuzatiladi va uning barcha fraksiyalari hamda kraxmal miqdori mos ravishda o'zgaradi. Bug'doy donining biologik qiymati va uning hosildorligi bir vaqtning o'zida ahamiyatli darajada ortadi.

100 g bug'doy donida asosiy oziqa moddalarining miqdori

Don qismlari	Massa buyicha don qismlari nisbati	Oqsil	Kraxmal	Shakar	Kletchatka	Pentozalar	Yog'	Kul
Butun don	100,00	16,06	63,07	4,32	2,76	8,10	2,24	2,18
Endosperm	81,60	12,91	78,82	3,54	0,15	2,72	0,68	0,45
Murtak	3,24	41,30	-	25,12	2,46	9,74	15,04	6,32
Qobiq bilan								

aleyron qatlam	15,48	28,75	-	4,18	16,20	36,65	7,78	10,5 1
----------------	-------	-------	---	------	-------	-------	------	-----------

E.A. Filippova va boshqalar olib borgan tadqiqotlarda keltirilishicha, ertapishar bug'doy doni navlarida kleykovina miqdori ajralib turishini aniqlashdi. O'rta va kechpishar bug'doy doni navlarida kleykovina miqdori 30-40% gacha etishi aniqlangan.

A.V. Volkov olib borgan tadqiqotlarda kuzgi bug'doy doni navning qarishi bilan un dagi kleykovina miqdori kamayishini aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent: 2017-yil, 7-fevrali, PF-4947-son
2. Дон ва дон маҳсулотлари товаршунослиги. Доц. Айходжаева Н.К., Равшанов С.С. Тошкент: 2012-йил.-157 бет
3. Филиппова, Е.А. Влияние природных факторов на вегетационный период, продуктивность и качество сортов мягкой пшеницы / Е.А. Филиппова, Л.Т.Мальцева, Н.Ю.Банникова // Аграрный вестник Урала. – 2011. - №4 (83). - С. 6-9.